



**TA'LIM JARAYONIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA VA  
METODLARNI RIVOJLANTIRISHNI TA'MINLASH**

**Iskandarova Nilufar**

*SamDChTI*

**Zarifjonova Sarvara**

*SamDCHTI*

**Annotasiya:** Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlardan biri ta'lim tizimiga berilayotgan e'tibor va fidoyilikdir. Ta'lim oluvchilar bilimi, ko'nikmasi va malakalari zamon talablariga javob beradigan darajada bo'lishini ta'minlash maqsadida pedagog xodimlarga yuklangan vazifalar nihoyatda salmoqli va mas'uliyatlidir. Bu vazifani ado etish uchun o'qituvchilar qaysi turdag'i ta'lim muassasasida mehnat qilishidan qat'iy nazar doimiy ravishda o'z ustilarida mustaqil ishslashlari, malakalarini oshirib borishlari va ilmiy ijodiy izlanishlari zarurdir.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy ta'lim, kommunikativ muloqot, metodlar, didaktik o'yinli darslar, rolli oynilar, guruhlarda ishslash, kommunikativ muloqot, pedagog, tanqidiy fikr.

### **Kirish**

Maktabgacha ta'limda zamonaviy texnologiya va metodlardan foydalanish bilim oluvchilarning yanada rivojlantirishga sabab bo'ladigan omillardan biri hisoblanadi. O'quv faoliyati insonda muvafifaqiyatli mehnat faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini ta'minlash maqsadida uni o'qitish hamda tarbiyalashga qaratilgan maqsadli faoliyatdir. Ushbu jarayonning mohiyati inson tomonidan to'plangan tajriba, bilimlar, malaka va ko'nikmalar shaklida ózgartirish hamda uni o'sib kelayotgan avlodga berishdan iborat. O'quv faoliyati insonning individual rivojlanishi bilan uzviy bog'liq va uning hamma fazalarda-bolalikdan boshlab, to'ulg'aygan davrigacha mavjud bo'ladi. Shuning uchun tarixiy ijtimoiy hodisa hisoblanmish o'quv jarayoni o'z rivojlanish tarixiga ega.

### **Muhokama va Natijalar**

O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv

# "PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etib boriladi Ta'lim jarayonida didaktik o'yinli texnologivalgir didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda bolalarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati orqali uyg'unlashtiriladi. Shu sababli bolalarning ta'lim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uvg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslardan foydalaniladi.

Inson hayotida o'yin faoliyati orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- o'yin faoliyati orqali shaxsning o'qishga, mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi;
- o'yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi ya'ni, kommunikativ — muloqot madaniyatini egallashi uchun yordam beriladi;
- bolada o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi;
- hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengish va mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalarining tarkib topishiga yordam beradi;
- o'yin jarayonida ijtimoiy normalaiga mos xulq-atvorni egallah, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi;
- shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi;
- insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatalarni o'rganishga e'tibor qaratiladi;
- o'yin ishtirokchilaridajamoaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi.

Didaktik o'yinli mashg'ulotlarni talabalarning bilim olish va o'yin faoliyatining uyg'unligiga qarab: syujetli-rolli o'yinlar, ijodiy o'yinlar, ishbilarmonlar o'yini, konferensiyalar, o'yin-mashqlarga ajratish mumkin. O'qituvchi-pedagog talabalarga individual (yakka tartibdagi), so'ngra guruqli o'yinlarga tayyorlashi va uni o'tkazishi, o'yin muvaffaqiyatli chiqqandan so'ng esa, ularni ommaviy o'yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki bolalar didaktik o'yinli mashg'ulotlarda faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari, bundan tashqari, guruhi jamoasi o'rtasida hamkorlik o'zaro yordam vujudga kelishi lozim.

Tanqidiy fikr — bu qo'yilgan masala yoki muammo yuzasidan o'z fikrini bayon qilish, o'zgalarning flkrlarini tanqidiy qayta idrok etish, o'z nuqtai nazarini asoslab berish va saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'lishga asoslangandir. Yana bu qoidaga aniqlik kiritadigan bo'lsak, fikrlash — bu o'qish, yozish, so'zlash va eshitishga o'xshash jarayon. U faol, muvofiqlashtiruvchi shunday jarayonki, o'zidabiror haqiqat to'g'risidagi fikrlami qamrab oladi.

Tanqidiy (tahliliy) fikr shu bilan ahamiyatlidir:

# "PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



- hayotning murakkab o'zgaruvchanlik ma'nosini tushunib yetishga yordam beradi;

- jamoaning ochiq fikrini rag'batlantiradi;

- aloqa, tushunish va hurmatning ikki tomonlamaligini anglatadi;

- shaxsning rivojlanishiga sharoit yaratishi va boshqalar.

Ta'lim jarayonida tanqidiy (tahliliy) fikrlashning asoslanishi:

1. O'qituvchi (pedagog) va o'quvchi-talaba o'rtasidagi hamda o'quvchi-talaba bilan o'quvchi-talaba o'rtasidagi o'zaro hurmatni tarbiyalaydi.

2. Mashg'ulot jarayonida o'quvchi-talabaning o'z tajribasidan foydalaniladi.

3. M a'lum o'quv mazmuni o'quvchi-talabaning talablariga mos va aniq tarzda foydalaniladi.

4. Muammoni hal qilishda o'quv materiallaridan foydalaniladi.

5. Har xil fikr va qarashlar integratsiyalashadi.

6. Dastlabki shart-sharoitlar qabul qilinadi va tekshirib ko'rildi.

7. Pedagog bilan o'quvchi-talabalar orasidagi yoki o'quvchi- talabalarning o'zları o'rtasidagi munosabatlar orqali berib boriladi.

8. O 'quvchi-talabalaming mustaqil ta'lim olishi uchun sharoit yaratiladi va ularning tayyorgarlik darajasiga muvofiq metodlar tanланади.

Mashg'ulotlar jarayonida foydalaniladigan didaktik o'yinli texnologiyalar o'quvchi-talabalaming bilish faoliyatini faollashtirish, darslik va qo'shimcha adabiyotlar ustida mustaqil ishlash, nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirish, ularni ongli ravishda kasbhunarga yo'llash, didaktik o'yin davomida vujudga kelgan qiyinchiliklami bartaraf etishda mo'ljahii to'g'ri olish, har xil vaziyatlarni tahlil qilib, to'g'ri xulosa chiqarishga zamin hozirlaydi. Nemis padagogi A.F.Disterveg aytganidek: «Noqobil o'qituvchi haqiqatni shunchaki aytadi-qo'yadi, yaxshisi esa uni topishga o'rgatadi»

Xulosa qilganimizda,kuchli bilim, kasbiy metodika va oddiy insoniy fazilatlardan iborat uchta xususiyat birlashib o'qitish jarayonining pirovard natijasini belgilaydi. Bilimsizda metodik mahorat bo'lishiga ishonib bo'l'maganidek, bularning har ikkisiga ega bo'la turib, odamiylikdan bexabar shaxsning ham o'qituvchiligidan foya yóqdir.Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat ham yuqorida tilga olingan uchlikning tugalligisiz sxolastika botqog'iga botib turaveradi.Ta'lim va tarbiyaning sifat va samaradorligi-juda ko'p omillarga bog'liq bo'lganligi uchun ham bu borada yagona va qudratli tavsiya yoki yo'l-yo'riq berib bo'lmaydi. Hattoki, zamonaviy pedagogik yokiaxborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ham foydalana bilishning o'ziga xos va o'ziga mos mezonlari mavjudligini unutmaslik kerak. Noan'anaviylik, innovatsiya yoki interfaollik bayrog'ini baland ko'taruvchilar ham o'qitishning ming yillik an'ana va tajribalari, to'plangan ulkan tajribaviy zaxirasini inkor etmasliklari lozim. Eski va yangining

**"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION  
OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"**

o'zaro munosabati, an'ana va tashabbusning kelishuvchanlik tamoyillarini unutmaslik kerak.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Innovasion ta'lif texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H.
- 2 PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR va PEDAGOGIK MAHORAT./H.T. Omonov, N.X. Xo'jayev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov.
- 3 [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi.

